



TANQIDIY NAZAR, TAHLILIY TAFAKKUR VA INNOVATSION G'OYALAR



ABDULLA ORIPOVNING “SOHIBQIRON” ASARINI 9-SINF ADABIYOTI DOIRASIDA TRANSFORMATSION METOD ASOSIDA O’RGANISH

Fayzullayeva Nafisa Sharif qizi

fayzullayevanafisa0@gmail.com

*Sharof Rashidov nomidagi Samarqand davlat universiteti
filologiya fakulteti talabasi*

Annotatsiya: Ushbu maqolada o‘zbek adabiyotining yirik vakillaridan biri Abdulla Ori波vning “Sohibqiron” dramasi transformatsion metod asosida tahlil etilgan. Asar tili, grammatick tuzilmalari, sintaktik birlklari hamda obrazlarning nutqiy portretlari transformatsion yondashuv asosida o‘rganildi. Tahlil jarayonida asardagi dramatik holatlar, voqealar ketma-ketligi va badiiy vositalarning lingvistik jihatlari aniqlanib, ularning semantik yuklamalari ochib berildi. Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatdiki, transformatsion metod orqali badiiy matnni chuqur tahlil qilish, obrazlarni yanada teran anglash hamda o‘quvchilarga adabiy-estetik tushunchalarni samarali yetkazish mumkin. Mazkur metod o‘quvchilar tafakkurini faollashtirish, tahliliy fikrlash malakasini shakllantirishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Kalit so‘zlar: Abdulla Ori波v, Sohibqiron, dramatik asar, transformatsion metod, til birlklari, tahlil, obraz, sintaktik struktura.

Annotation: This article analyzes the play Sohibqiron by one of the prominent representatives of Uzbek literature, Abdulla Ori波v, using the transformational method. The language of the work, grammatical structures, syntactic units, and the speech portraits of the characters are studied based on the transformational approach. During the analysis, the dramatic situations in the work, the sequence of events, and the linguistic aspects of artistic devices were identified, and their semantic layers were revealed. The research results show that the transformational method allows for a deep analysis of literary texts, a deeper understanding of characters, and effective communication of literary-aesthetic concepts to students. This method plays a significant role in activating students' thinking and developing analytical reasoning skills.

Keywords: Abdulla Ori波v, Sohibqiron, dramatic work, transformational method, language units, analysis, character, syntactic structure.

Аннотация: В данной статье анализируется драма Сохибкирон одного из выдающихся представителей узбекской литературы - Абдуллы Арипова - на основе трансформационного метода. Язык произведения, грамматические структуры, синтаксические единицы и речевые портреты персонажей изучаются с позиции трансформационного подхода. В процессе анализа были выявлены драматические ситуации, последовательность событий и лингвистические аспекты художественных средств, а также раскрыты их семантические значения. Результаты исследования показывают, что трансформационный метод позволяет





TANQIDIY NAZAR, TAHLILIY TAFAKKUR VA INNOVATSION G‘OYALAR



глубоко анализировать художественный текст, глубже понять образы и эффективно донести литературно-эстетические понятия до учащихся. Данный метод играет важную роль в активизации мышления школьников и формировании навыков аналитического мышления.

Ключевые слова: Абдулла Арипов, Сохибқирон, драматическое произведение, трансформационный метод, языковые единицы, анализ, образ, синтаксическая структура.

KIRISH

Tilshunoslikda sintaktik tahlilning mukammal usullaridan biri sifatida e’tirof etiladigan transformatsion metod XX asr o’rtalaridan boshlab rivojlanib, bugungi kunga kelib zamonaviy tilshunoslikda muhim tahlil vositasi sifatida qo’llanilmoqda. Ushbu metod orqali til birlklari, xususan, gaplar va ularning tarkibiy qismlarini semantik va sintaktik jihatdan tahlil qilish imkoniyati yaratiladi. Transformatsion metodning nazariy asoslari Z. Xarris, N. Xomskiy, D. Uors kabi tilshunoslar tomonidan ishlab chiqilgan bo’lib, u yadro gaplarning hosila gaplarga qanday o’zgarishini izohlash, gap bo’laklarining funksional yukini aniqlash va sintaktik modellarni sistemalashtirish kabi vazifalarni bajaradi. Mazkur maqolada transformatsion metodning amaliy imkoniyatlaridan foydalananib, Abdulla Oripovning 9-sinf adabiyot darsligida berilgan “Sohibqiron” drammasi parchasining lingvistik jihatlari tahlil qilinadi. Xususan, asarda qo’llanilgan yadro gaplar va ularning transformatsiya imkoniyatlari ko’rib chiqiladi. Bu esa drammaning sintaktik tuzilishini tahlil qilish va badiiy ifoda vositalarining tilshunoslikdagi ahamiyatini yoritishga xizmat qiladi.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYA

Tilshunoslikda transformatsion metod til birliklarining sintaktik va semantik munosabatlarini o’rganishda keng qo’llaniladi. Z. Xarris, N. Xomskiy va L.V. Щерба kabi olimlar tomonidan rivojlantirilgan ushbu metod gaplarning yadro va hosila shakllari o’rtasidagi o’zgarishlarni aniqlashga yordam beradi⁸. Transformatsion metod gap tarkibidagi elementlarning o’rin almashuvi, almashtirish, qo’shish va qisqartirish kabi o’zgarishlarni o’rganishga qaratilgan. Ushbu tadqiqotda Abdulla Oripovning “Sohibqiron” drammasining 9-sinf darsligidagi parchasidan olingan yadro gaplar asosida transformatsion tahlil olib boriladi. Tadqiqot jarayonida yadro gaplar aniqlanib, ularning transformatsiyalari tahlil qilinadi va ular lingvistik nuqtai nazardan baholanadi.

NATIJALAR

“Transformatsiya” atamasi lotin tilidagi “transformatio” - o’zgarish, shakl almashtirish degan ma’noni anglatadi. Tilshunoslikda esa bu metod XX asrda amerikalik olim Noam Chomsky tomonidan ilgari surilgan bo’lib, u gaplarning chuqr va yuzaki strukturalarini tahlil qilishga asoslanadi⁹. Transformatsion metodga ko’ra, har bir murakkab gap yoki matn

⁸ Nurmonov, Sh. (2008). Zamonaviy lingvistik metodlar. Toshkent: Fan va texnologiya nashriyoti. B. 64-67.

⁹ Chomsky, N. (1957). Syntactic Structures. The Hague: Mouton.





TANQIDIY NAZAR, TAHLILIY TAFAKKUR VA INNOVATSION G‘OYALAR



soddaroq, chuqur sintaktik birliklarga asoslanadi. Tahlil jarayonida bu birliklar turli grammatik o‘zgarishlar -qo‘sish, olib tashlash, almashtirish, joy almashtirish orqali yuzaki shaklga keladi.

Transformatsion metod tilshunoslikda tahlil qilishga mo‘ljallangan usul bo‘lib, matndagi murakkab konstruksiyalarni sintaktik jihatdan soddalashtirish, ularning tub strukturasini aniqlash orqali matnning asl mazmunini anglash imkonini beradi. Bu usul adabiy tahlilga tatbiq etilganda, asardagi g‘oyaviy-syujet qurilishi, obrazlar tizimi, uslubiy vositalar va ruhiy holatlar o‘rtasidagi ichki bog‘liqliklarni anglashga xizmat qiladi.

I. Matn sathida - sintaktik transformatsiya:

Asar matnida Amir Temurning nutqlari ko‘pincha murakkab, bir necha bo‘lakli gaplar orqali ifodalanadi. Transformatsion metod bu gaplarni soddalashtirib, ularning asosiy ma’nosini ajratishga yordam beradi.

“Bizkim, mulki Turon, amiri Turkistonmiz.

Bizkim, millatlarning eng qadimi va eng ulug‘i...

Bizning esa chekimizga boshqa yuk tushgan...”

Transformatsiyada quyidagicha ko‘rinishda bo‘ladi:

1. Biz mulki Turonmiz.
2. Biz - Turkiston amirimiz.
3. Biz eng qadimiy va ulug‘ millatmiz.
4. Bizga og‘ir yuk tushgan.

Tahlil: Bu yerda “bizkim” qo‘shma bo‘lagi orqali bir nechta murakkab ifodalar yaratilyapti. Transformatsiya orqali gaplarni alohida soddalashtirish orqali Temurning o‘zini xalq, tarix va taqdir bilan uyg‘un holatda tasvirlayotganini ko‘ramiz.

II. Semantik sathida - mazmuniy transformatsiya:

“Men - Temurman! Oriyat ham bor-ku dunyoda.”

Transformatsiya qilinganda:

1. “Men Temurman.”
2. “Dunyoda oriyat - nomus bor.”
3. “Nomusli kishi bo‘lish kerak.”

Tahlil: Bu gapda Temur o‘z shaxsiyatini va jang sababini “oriyat” bilan bog‘laydi. Shuning uchun bu ifoda ichida shaxsiy g‘urur, siyosiy zarurat va tarixiy mas’uliyat mujassam.

III. Pragmatik sathda - niyat va maqsad transformatsiyasi:

“Yana yumush topshiraman senga ishonib,

Zero, har ne mushkulni ham eplab kelgansan.”

Transformatsiya qilinganda:

1. “Men senga topshiriq beraman.”
2. “Men senga ishonaman.”
3. “Sen har bir mushkul ishni bajargansan.”





TANQIDIY NAZAR, TAHLILY TAFAKKUR VA INNOVATSION G‘OYALAR



Tahlil: Temurning Buqalamunga aytayotgan gaplari orqasida uning davlat xavfsizligi, josuslik va diplomatiyadagi siyosatini tushunish mumkin. Transformatsiya orqali Buqalamun obrazining funksional vazifasi ochiladi.

IV. Obrazlar transformatsiyasi (obraz funktsiyasini aniqlash):

1. Temur → Strateg, rahbar, ruhiy kuch manbai

Nutqlari kuchli irodani, aqlni, mas’uliyatni ifodalaydi.

Uning har bir ko’rsatmasi davlat tuzilmasi va harbiy tartibga asoslanadi.

Transformatsiya orqali Temur = davlat aqli + milliy g‘urur + strategik tahlil.

2. Buqalamun → Shaxsiy razvedka vositasi

Uning ko‘p qiyofaliligi orqali Temurning xufiyona siyosatini ko‘ramiz. Transformatsiya orqali Buqalamun - u axborot vositasi, “ko‘z va quloq” sifatida chiqadi.

3. Bibixonim → Xotin-qizlar timsoli, izzat-sharaf ramzi. Temurga sadoqatli, biroq o‘zining shaxsiy istaklarini bildira oladigan kuchli ayol. Uning obrazini transformatsiya qilsak: Bibixonim = oriyat + muhabbat + siyosiy tayanch.

V. Uslubiy vositalar transformatsiyasi:

“Bayrog‘ingiz egilmasin maydonda sira,

Jangda yolg‘iz qolsangiz ham bayroq tik bo‘lsin.”

Transformatsiyada esa:

- Bayroq = g‘urur, vatan, jasorat.
- Bayroq egilmasin = mag‘lub bo‘lmang.

Bu yerda bayroq - metonimiyadir. Transformatsiya orqali bayroq deganda butun millat sha’ni, g‘ururi, kuchi nazarda tutiladi.

Bolalarim, unutmangki, davlat ishidha

Har qanday yumushning ham o‘z o‘rni bordir.

Imperativ (buyruq) gap - unutmangki, izohlovchi gap - davlat ishida har qanday yumushning ham o‘z o‘rni bordir. Bu gapda har qanday yumush davlat uchun ahamiyatlidir degan fikr joylashgan, ya’ni sabab - natija munosabati mavjud.

Transformatsiya turlaridan kompleks gapga → oddiy sababli gapga aylantirilishi mumkin: har qanday yumush o‘z o‘rniga ega, chunki bu davlat ishidir.

...O‘z ismini yozmish Sulton oltin hal bilan,

Bizning ism quyiroqda, oddiy siyohda...

Oddiy izohlovchi gap - amaldor xat tahlili. G‘ururiy hissiyat + siyosiy metafora mavjud. Oltin - hukmronlik, siyoh - mensimaslik. Leksik-sintaktik metafora → psixologik baho (quyi/yuqori qarashning lingvistik ifodasi): “U o‘zini bizdan ustun qo‘ymoqda, bu bepisandlik belgisidir.”

...O‘zgaradi va hattoki ko‘zingning rangi,

Sen bilmagan til ham yo‘qdir yetti iqlimda...





TANQIDIY NAZAR, TAHLILY TAFAKKUR VA INNOVATSION G'oyalar



Muqarrarlik modalitesi bilan ifodalangan oddiy gap. Buqalamunning qiyofasi va nutqiga xos har tomonlama moslashuvchanlik - sarkastik kuch bilan ifodalangan. Analogik o'zgartirishlar orqali: "Sen shunday o'zgaruvchanki, inson sifatida aniqlanmay qolasan."

...Mana endi ishga tushar sarkardam farzin

Va ortidan ikkinchi rux chiqar maydonga...

Shatranj terminologiyasi orqali jang tasviri ifodalangan bo'lib, shatranj o'yini orqali strategik harakatlar va jang taktikasining uyg'unligi tasvirlanadi. Transformatsiya turi: leksik metafora (o'yin → urush), semantik parallel: "Endi eng kuchli generallarim jangga kiradi, bu esa jangning yakun bosqichidir."

Xulosa qilib aytganda, transformatsion metod badiiy asarlardagi til birliklarini tahlil qilishda samarali vosita bo'lib, ayniqsa dramatik asarlardagi dialoglar, ziddiyatlar va obraz psixologiyasini tahlil etishda yuqori samaradorlikka ega. "Sohibqiron" dramasi misolida bu metod asarning badiiy - estetik qatlamlarini chuqur o'rganishga imkon berdi. Transformatsion metod orqali mazkur sahna:

- Amir Temurning ruhiy holatini - ruhiy qudrat va adolat hissi orqali;
- Obrazlar tizimini - funksional rol orqali;
- Gaplarning sintaktik tuzilmasini - soddalashtirish orqali;
- Asarning g'oyaviy qatlamini esa - semantik-paradigmatik tahlil orqali ochib berdi.

MUHOKAMA

Transformatsion metod asosida "Sohibqiron" dramasi parchasini tahlil qilish natijalari shuni ko'rsatdiki, bu usul nafaqat grammatik qurilmalarning tahliliga xizmat qiladi, balki asar semantikasining chuqur qatlamlarini ochib berishda ham samarali vosita hisoblanadi. Dramaturg tomonidan ishlatilgan til birliklari - gap tuzilmalari, sintaktik qurilmalar, inversiya, emfatik shakllar - bularning barchasi obrazning psixologik holati, tarixiy voqeа fonidagi ruhiy kechinmalarini ifodalashga xizmat qilgan. Transformatsion tahlil bu vositalarni grammatik shakllaridan semantik yuklamasigacha o'rganish imkonini berdi.

Birinchi navbatda, bunday metod yordamida murakkab gaplar strukturasining o'zgarishi orqali dramatik holat kuchaytirilishi, sahna tilining ifoda qudratini aniqlash mumkin bo'ldi. Jumladan, Amir Temur obraziga oid nutq birliklaridagi aniqlik, qat'iyat, zamin ifodasi bo'lmish buyruq ohangi, zamon ifodalarining keng qo'llanilishi uning fe'l-atvori, harakteri, tarixiy vazifasini badiiy tilda namoyon etgan. Bunday sintaktik vositalarni transformatsion o'zgarish asosida tahlil qilish esa o'quvchida matnni emotSIONAL va mantiqiy anglash imkonini yaratadi. Chunki transformatsion metod nafaqat strukturaviy o'zgarishni, balki u orqali mazmunni chuqur tushunishga xizmat qiladi¹⁰.

Shu bilan birga, dramadagi dialog va monolog birliklari ham transformatsion tahlil orqali obrazlar orasidagi psixologik ziddiyat, dramatik keskinlik, tarixiy fon bilan bog'liq

¹⁰ Nurmonov A. Tilshunoslikda transformatsion tahlil metodlari. – Toshkent: O'zbekiston Milliy ensiklopediyasi, 2015. – B. 45–46.





TANQIDIY NAZAR, TAHLILIY TAFAKKUR VA INNOVATSION G‘OYALAR



izchil mantig‘iy voqeani ochib beradi. Bu esa, o‘z navbatida, dramani dars jarayonida o‘rganishda adabiy-badiiy tahlilga ilmiy yondashuv olib kirishni ta’minlaydi. Masalan, sintaktik jihatdan oddiy ko‘ringan, ammo pragmatik jihatdan kuchli ta’sirga ega bo‘lgan nutq birliklarining transformatsion tahlili o‘quvchining og‘zaki va yozma nutq madaniyatini boyitadi, asarni chuqur idrok etishiga yordam beradi¹¹.

Ta’limiy jihatdan olib qaraganda, transformatsion metod asosida “Sohibqiron” dramasi parchasini o‘rganish 9-sinf o‘quvchilarida bir nechta ko‘nikmalarni shakllantiradi:

- ✓ adabiy matnning grammatik qurilmasini tushunish,
- ✓ badiiy ifoda vositalarining mantiqiy asoslarini tahlil qilish,
- ✓ nutq birliklari orqali obraz yaratish sirlarini anglash,
- ✓ matnni o‘z fikriga asoslangan holda tahlil qilish,
- ✓ tarixiy obrazni zamonaviy qarash bilan solishtirib baholash.

Bu metodik yondashuv o‘quvchilarni matnga estetik, lingvistik va axloqiy jihatdan yondashishga undaydi. Shuningdek, dramatik matnlar tilining o‘ziga xosliklarini transformatsion tahlil yordamida anglagan o‘quvchi boshqa badiiy janrlardagi asarlarni ham mustaqil tahlil qila oladi. Bu esa uning adabiy-estetik tafakkurini shakllantirishda muhim bosqich bo‘lib xizmat qiladi.

Xulosa shuki, transformatsion metod badiiy asarni, ayniqsa dramatik janrdagi asarlarni o‘rganishda o‘ta foydali vositadir. U orqali o‘quvchi nafaqat tahlil qilish, balki o‘z fikrini mustaqil shakllantirish, mualif niyatini anglash va tilning badiiy imkoniyatlaridan xabardor bo‘lishga erishadi.

XULOSA

O‘zbekiston xalq shoiri Abdulla Oripov tomonidan yaratilgan “Sohibqiron” dramasi badiiy jihatdan yetuk, tarixiy obrazni zamonaviy talqinda jonlantirishga uringan betakror asarlardan biridir. Ushbu dramani transformatsion metod asosida o‘rganish esa, avvalo, asar matnining til tuzilmasini chuqur anglash, so‘ngra mazmuniy qatlamlar va estetik unsurlarni lingvistik asosda talqin qilish imkonini berdi. Transformatsion metod yordamida asarda qo‘llanilgan gap birliklari, sintaktik strukturalar, grammatik vositalar va ularning mazmuniy yuklamalari tahlil qilinib, dramatik holatning qanday shakllanganligi aniqlandi. Ayniqsa, Amir Temur obrazining nutqiy portretini yoritishda ishlatilgan badiiy vositalar, ularning transformatsion tahlili orqali obraz ruhiyati, qat’iyati, irodasi va siyosiy pozitsiyasi ochib berildi. Shuningdek, bu metod orqali dramada voqealar rivojidagi keskinlik, obrazlararo ziddiyatlar, tarixiy tafakkur elementlari chuqur tahlil qilindi.

Mazkur maqolada olib borilgan ilmiy ishlanmalar shuni ko‘rsatadiki, transformatsion metod faqat nazariy tilshunoslikda emas, balki o‘rtta maktab adabiyot darslarida ham samarali pedagogik vosita sifatida qo‘llanilishi mumkin. Bu yondashuv o‘quvchilarda nafaqat badiiy matnni grammatika asosida tahlil qilish, balki uning ma’no qatlamlarini

¹¹ Qodirov S. Adabiy matn va tilshunoslik yondashuvlari. – Samarqand: Zarafshon, 2020. – B. 82–84.





TANQIDIY NAZAR, TAHLILIY TAFAKKUR VA INNOVATSION G‘OYALAR



anglash, mustaqil fikrlash, adabiy-estetik tafakkurni shakllantirish ko‘nikmalarini rivojlantiradi.

Shu asosda, transformatsion metod yordamida “Sohibqiron” dramasi parchasini tahlil qilish nafaqat asarning badiiy xususiyatlarini ochib berishga xizmat qildi, balki uni o‘quvchilarga zamonaviy tilshunoslik asosida chuqur, asosli va ilmiy tarzda tushuntirish imkonini ham ta’minladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Nurmonov, Sh. (2008). Zamonaviy lingvistik metodlar. Toshkent: Fan va texnologiya nashriyoti, 64-67.
2. Chomsky, N. (1957). Syntactic Structures. The Hague: Mouton.
3. Nurmonov A. (2015). Tilshunoslikda transformatsion tahlil metodlari. - Toshkent: O‘zbekiston Milliy ensiklopediyasi, 45-46.
4. Qodirov S. (2020). Adabiy matn va tilshunoslik yondashuvlari. - Samarqand: Zarafshon, 82–84.
5. *Q.Yo‘ldoshev, V.Qodirov. (2019). 9-sinf adabiyot.- Toshkent, 366.*

